
FARG'ONA SHAHRIDA "FARG'ONA OQSHOMLARI" MADANIY KO'NGILOCHAR KONTSERT TADBIRLARI O'TKAZILMOQ



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan Farg'ona shahar hokimi M.Ubaydullayevning 2021 yil 16 apreldagi 108-sonli farmoyishiga asosan joriy yil 20 apreldan boshlab (bugundan), Farg'ona shahar Islom Karimov nomidagi viloyat teatr kontsert saroyi tashqi sahnasida haftaning seshanba, payshanba, shanba kunlari soat 19:00dan 21:30ga qadar "Farg'ona oqshomlari" madaniy ko'ngilochar kontsert tadbirlari o'tkaziladi. Tadbirda **mashhur san'atkorlar ham** ishtirok etmoqda. Ushbu o'tkaziladigan kontsertlardan fuqarolar madaniy dam olishlarini mumkin. *Barchani taklif qilib qolamiz!!!*

Farg'ona shahar hokimligining axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-04-20 15:07:06